

O'ZGA TILDA SO'ZLASHUVCHI O'QUVCHILARGA TINGLAB TUSHUNISH USULI YORDAMIDA O'ZBEK TILINI O'RGATISH**Qurbonova Aziza Tohirovna***SamDU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich magistranti***Annotation**

This article provides information about language and its importance in society, as well as the phenomenon of bilingualism, as well as the importance of multilingualism and ways to teach Uzbek to students who speak another language.

Key words

language, social phenomenon, bilingualism, multilingualism, listening comprehension.

Annotatsiya

Ushbu maqolada til va uning jamiyatdagi ahamiyati hamda bilingvizm hodisasi shu bilan birgalikda o'zga ko'p tillilikning ahamiyati, o'zga tilda so'zlashuvchi o'quvchilarga o'zbek tilini o'qitishning usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar

til, ijtimoiy hodisa, bilingvizm, ko'p tillilik, tinglab tushunish.

Til insoniyat tafakkurini va taraqqiyot tajribalarini ajdodlardan avlodlarga yetkazib beruvchi muhim vositalardan biridir. Har bir millat va elat o'z ona tili vositasida ma'naviy meroslarini yaratadi, o'zga xalqlar bilan do'stlik munosabatlarini o'rnatish bilan birgalikda barcha sohalarida o'z tajribalarini almashadilar. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak –millat ruhini yo'qotmakdur". Haqiqatan ham til har bir xalqning mavjudligini, mustaqilligini, asrlar mobaynida taraqqiy etgan o'z dunyoqarashi, hamda milliy mentalitetini ko'rsatish bilan birga, o'zga millat vakillari orasida madaniy –ma'rifiy aloqalarni o'rnatuvchi ko'pri hamdir.

Tilni, til orqali insoniyatning ma'naviy meroslarini kelajak avlodga to'la -to'kis yetkazib berish uchun ona tilini asrab –avaylashimiz lozim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham aynan shu fikrni nazarda tutib, o'zining "Yuksak ma'naviyat –yegilmas kuch" nomli kitobida ushbu fikrlarni keltirib o'tadi: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab –avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarida ona tilimizning qo'llanish darajasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish va milliy o'zlikni, vatan tuyg'usini anglashda ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz". Degan fikrlarni keltirib o'tadi.

Ona tili va shu qatorda o'zga tilni yoki uning dialektini bilish, unda o'zining fikrini erkin ifoda eta olish bilingvizm hodisasi deyiladi. Bilingvizm, ya'ni ko'p tillilik ijtimoiy talab yoki ikki va undan ortiq millat vakillarining birgalikda yashashlari tufayli ham vujudga keladi. Bilingvizm ijtimoiy hodisa sifatida, ikki til vakillari uchun umumiylik kasb etadi. Ikki tillilik hodisasini to'liq mavjud deyish uchun ikkala til vakillaridan har ikki tilda, til qonuniyatlariga amal qilgan holda erkin so'zlashishlari va muloqot qilishlari talab etiladi.

E.Vereshagin fikriga ko'ra bilingvizm fanda uch yo'nalish, ya'ni psixologiya, lingvistika va sotsiologiyada o'rganiladi. Ruhshunoslikda bilingvizm insonning tafakkurida ikkala tilda so'zlashish qanday natijalarga olib kelishi o'rganilsa, tilshunoslikda o'zaro yaqin va yaqin bo'lmagan tillarda so'zlashuvchilar nutqida sodir bo'ladigan (yozma va og'zaki nutqda) o'zgarishlar tadqiq qilinadi. Jamiyatshunoslikda esa ikki tilda so'zlashuvchilarning jamiyat hayotida qanday o'zgartirishlarni amalga oshirishlari, o'zaro muloqot natijasida madaniyat,urf –odat va an'analarning ham ikki xalq turmushida ikki tilda so'zlashish natijasida singib borishini kuzatadi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, o'zga tilni o'rganish ikki yarim yoshdan boshlanib, 8 -11 yoshlar oralig'ida anchagina susayadi. Chunki bola o'z ona tiliga oid elementlarni 2,5 -3 yoshida deyarli o'zlashtirib bo'ladi. Demak, ikkinchi tilni mukammal o'rganish bolalik davriga to'g'ri keladi. Psixolog Ellin Bealistokning ta'kidlashicha uyda, ikki tilda so'zlashuvchilar oilasida katta bo'lgan bolalar muammosiz ikki tilni ham o'rganadi. Ikkala tilni savodli darajada o'rganish uchun esa ikki tilning grammatikasini bir xil tizimda o'rganish lozim. Darhaqiqat, ikkinchi til ta'limida eng muhim va murakkab muammolardan biri til va nutq materiallaridan birini tanlash va ularni to'g'ri taqsimlash bo'lib, bunda, avvalo,o'quvchilarning yoshi va ta'lim yo'nalishini e'tiborga olgan holda grammatik minimumni tanlash va taqsimlash, ya'ni kimga,nimani, qachon berilishi muammosini hal qilish kerak bo'ladi.

Demak, o'zga tilda so'zlashuvchi o'quvchilarga ona tilini o'rgatish jarayonida, avvalambor, tilning grammatikasini, uning strukturasini hamda morfologiyasini o'rganishlari muhim hisoblanadi. So'zning qurilishi, to'g'ri talaffuz qilinishini o'rgangan o'quvchida, u o'zga millat vakili bo'lsa ham so'zlashish jarayonida muammolar kuzatilmaydi. Buni amalga oshirish uchun esa o'qituvchi ta'lim berish jarayonida yangi va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanmog'i darkor.

Ikkinchi tilni o'rgatishda tinglab tushunish metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Nutqni tinglab tushunish deganda ovoqli nutq, ya'ni gapirish mobaynida quloq solish, idrok qilish hamda fahmlash jarayoni tushuniladi. Tinglab tushunish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- umumiy eshitish idroki;
- so'zlarning tovush tomonini farqlash;
- mohiyatni anglash.

Tinglash uchun o'quvchining individual xususiyatlariga mos, uni qiziqтира oladigan, zerikish hissini uyg'otmaydigan yoki unga murakkablik tug'dirmaydigan audio tekstlardan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. O'quvchiga eshittirilayotgan matn imkon qadar tanish bo'lmasligi, avvaldan o'qilmasligi faqatgina eshittirilishi kerak. O'quvchi eshitgan matnini takrorlashi, unga nisbatan munosabat bildirishi unga o'zbek tilida mustaqil ravishda tezroq so'zlashish imkonini beradi. Tinglab tushunishga o'rgatishning bosh maqsadi matndan axborot olish, matnga nisbatan bildirilgan munosabatini, paydo bo'lgan tushunchalarni atrofida qilishga qiziqarli qilib ifodalab berishdir.

Xulosa o'rinda ta'kidlash lozimki, har bir til o'zining betakrorligi, muloqot vositasi hamda ajdodlarni avlodlarga bog'lovchi zanjir sifatida shu tilda so'zlashuvchilarga xizmat qiladi. Shaxsning komil inson sifatida voyaga yetishida ko'makchi bo'ladi. O'z ona tilidan tashqari ikkinchi yoki uchinchi tilni bilish, o'zga tilda erkin muloqot qilish jarayonlari bugungi kunning talabi hamdir. O'zga tilda so'zlashuvchilarga esa o'zbek tilini (ona tilimizni) o'rgatish, o'quvchilarda o'zbek tilida erkin so'zlashish malakasini hosil qilish, bu jarayonda turli va zamonaviy usullardan foydalanish o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Karimov yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent, 2008. – 205 b.
2. Е.М.Верещагин. Психологическая и методическая характеристика двуязычия, (Билингвизма). Москва-Берлин, 2014. – 162 с.
3. Passov E. Русский язык, М.: –1977. –82-83 с.
4. Бабинская П. К. , Леонтьева П. «Практический курс методики преподавания иностранных языков» Минск – 2003 г. –288 с.
5. www.library.academy.uz

¹ I.A.Karimov yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. Toshkent, 2008, 24 –bet.

² Психологическая и методическая характеристика двуязычия, (Билингвизма) Е.М.Верещагин.

³ Passov E.I.-M.:Русский язык , 1977 –С,82-83.